

JEK LONDONNING „OQ SO'YLOQ" VA NORMUROD NORQOBILOVNING „OQBO'YIN" QISSALARI MISOLIDA „ADABIYOTDA INSON HAMDA HAYVONLAR MUNOSABATI VA UNDA SADOQAT TIMSOLI IFODASI"

Olimova Fotimaxon

Farg'ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi

2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar-S.A.Xo'jayev

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ikki asarni o'zaro bir-biriga qiyoslash orqali asar bosh qahramonlari - otasi bo'ri onasi it hisoblangan Oq so'yloq hamda zotdor it-Oqbo'yinning o'zini o'rab turgan borliqqa munosabati, bir paytning o'zida mehr va zulm, shavqatsizlik va e'tibor topgan insoniyat bilan ularning o'zaro aloqa rishtalari va sadoqat tushunchasi bosh masala sifatida qo'yiladi.*

Kalit so'zlar: *turdosh, munosabat, xo'jayin tushunchasi, tabiat qonunlari, qondoshlik, hukmronlik hissi,tashqi olam, sadoqat.*

KIRISH

Bizni o'rab turgan borliq, butun koinot tirik jon borki, u xoh bo'lsin inson yoki hayvon ularning oldiga birinchi navbatda yashash uchun kurash, omon qolish masalasini bosh qonuniyat deb qo'yadi. Buyuk yozuvchi, asarlarida ona tabiatning har bir mo'jizasini to'laqonli ko'rsatib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan amerikalik yozuvchi Jek London „Oq so'yloq" qissasida ham o'z an'anasini davom ettirdi, ya'ni borliqning kichik mo'jizasiga ham tabiat muhandisi ko'zi bilan qaradi.O'q so'yloq – tomirlarida shimol bo'risining qoni oqayotgan,ammo taqdir izmi bilan onasi it bo'lgan buning natijasi o'laroq insoniyatga bog'lanib qolgan bir bo'ri bolasi(shunday deb atash ma'qulroq bo'ladi) haqidagi qissa hisoblanadi.

Mahoratli yozuvchi, asarlarida sodda va jo'n uslub orqali so'zlarni marjondek tera olgan Normurod Norqobilov o'zining „Yuzmma-yuz" ya'ni „Oq bo'yin" qissasida it hamda insoniyatni sadoqat rishtasi bilan bog'lagan do'stlikni tarannum etdi.

Oq so'yloq tug'ilgan ondanoq o'zini o'rab turgan bu tashqi olamni tezroq anglab yetishga harakat qildi va uyasini ilk bora tark etgan lahzada nimani yeyish mumkin-u nimaga hujum qilib bo'lmasligini hamda o'zidan ham yirtqichroq, xavfliroq bo'lgan dushmanlarning borligini anglab yetdi. U onasi Kichining bag'rida birin-ketin og'alari vafot etib g'oyib bo'layotganini his qilar o'zining nima uchun aynan tirik qolgani, tomirida oqayotgan bo'rining – otasining qoniga bog'liq bo'lib, sharoitga va uzoq muddatli ochlik azobiga chiday olishi tufayli ekanligini sira o'ylamas ham edi. Kunlarning birida esa uya- g'or oldida ichkariga kirmay yotadigan otasi- bir ko'zli bo'ri ham g'oyib bo'ldi.Ozuqa ilinjida hindular qabilasiga borib qolgan Oqso'yloq kelgusida butun umrini o'zgartirib yuboradigan qarorni o'z xohishiga qaramay qabul qilgan edi. Chunki ona it-Kichi hindu Ko'k Qunduzning iti bo'lib ochlik tufayli o'rmonga qochib ketgan edi. Shu zaylda onasining qarori bilan Oq so'yloq insonlar orasida yashay boshladi

.Albatta, o'zlariga mutlaqo begona bo'lgan bu bo'risifat hayvonni butun qishloqdagi odamlar hamda boshqa itlar yomon ko'rar va ularning taqibidan har gal bo'rilarga xos ayyorligi va epcilligi tufayli qochib qolar edi. U doimo insonlardan qochib yana o'rmon bag'riga onasi bilan birgalikda o'z uyasiga qaytishni kutib yashadi, biroq shunday kun keldiki ,o'rmon u uchun begona bo'lib qoldi. Boqiladigan itlar singari insonlarning e'tiboriga, beradigan ozuqalariga tamomila o'rganib bir o'zi qolib ketdi.Hindular boshpanasiga qaytgan Oq so'yloq hazungacha insonlarga qanday munosabatda bo'lishni bilmas va bir gal xo'jayinning o'g'lini bezori bolalarni quvlab qutqarib qolganda u o'z sohibidan jazo kutardi, ammo buning aksi o'laroq go'sht bilan siylandi.Yillar o'tib hamki taqdirning unga bergan og'ir sinovi o'laroq turli itlar va yirtqichlarni urushtiradigan bir oq tanliga asir bo'lib qoldi. Uning shu ondan boshlab hayot uchun mashaqqatli kurashi boshlandi, xavfli raqibga duch kelib o'lar holatga tushmaguncha Oq so'yloq biron marta mag'lub bo'lmadi, biroq „jangovar bo'ri” sifatida nom taratgan Oq so'yloq so'ngida o'z ajalini dushmaning tishlari orasida kutib yotar ekan inson tufayli shu holga tushgan bo'ri bolasi odamlarning ta'sirida , ularning yordami bilan yana omon qoldi va o'z egasini, bir umrlik mehribon sohibini topgan edi. Shu zaylda kun, oylar o'tar ekan tamomila Oq so'yloq bo'riligini ham unutdi uy itlariga xos bo'lgan ayrim odatlarni o'z xo'jayini uchun qabul qildi. Uidon Skott Oq so'yloqni tashlab janubga qaytganida hatto u kasal bo'lib hech narsa yemay qo'ydi va Oq so'yloqning vatani shimol – Alyaskani tashlab ketadigan lahzalari keldi bu ham bo'lsa insoniyatga sadoqati ortidan edi. Uning janubga o'rganishi qiyin bo'ldi biroq u yerda mehrga , o'z juftiga va tomirlarida ajdod bo'rilarining qoni oqayotgan o'z zurriyotiga ega bo'ldi. Unga ajal sirtmog'ini olib kelgan (mehribon xo'jayining sa'y-harakati bilan omon qolgan) narsa esa insoniyat tafakkuri natijasida faqat yo'q qilish uchun yaratilgan qurol- miltiq bo'lib qoldi.

Aynan miltiq detaliga to'xtalar ekanman,Oqso'yloqni og'ir ahvolga olib kelgan , Oqbo'yinni esa halok etgan narsa shu bo'lib qoldi. Insonlarga ko'rsatgan sadoqati uchun barcha tiriklikning ajal quroli bo'lgan miltiqdan o'lim topdi.Bu og'ir yo'qotish bir hasadgo'y insonning zotdor it Oqbo'yinga ega bo'la olmay qilgan xudbinligining, hirsining natijasi edi.

„Yuzma-yuz” ya'ni „Oqbo'yin” qissasi ham Oqbo'yinning hovlidagi notanish narsalar bilan tanishuvi, patni o'ynash sahnalaridan boshlanadi. Kunlar o'tgan sayin kuchukchalarning soni kamayib borar bir-ketin yo'qolib qolayotgan og'a-inilari taqdiri nima uchun shunday bo'layotgani Oqbo'yinga mutlaqo noma'lum edi. Faqat u bora –bora o'ynagani turdoshlarini topa olmay qoldi va kunlarning birida inson qotili bo'lgan onasi va ukasi Oqto'shning jasadini ko'rib qoldi. Endi ular ham Oqbo'yinning hayotida yo'q. Tabiat qonuni o'laroq u bu voqealarni, onasini tez unutdi va yashash uchun kurashni, o'z hududini kengaytirishni o'ylay boshladi. Kunlar o'tgan sari kichik xo'jayin Rasulga nisbatan sadoqati, mehri kuchayib borar ekan, unda hamisha hamrohlik qilar buning samarasi tufayli bezori bolalar unga sira hazil qila olishmas edi. Oqbo'yin Rasulning derazasi tagida yotar ekan qachonki uning bir me'yorda nafas olib uxlashiga amin bo'lgandan so'nggina uyni tark etib hududini kengaytirar va tez orada yaqin atrof ikki qutbga ya'ni Oqbo'yin va otasi Olaparning hududiga ajralib qolgan edi. Olaparga nisbatan adovatni his qilmas hamki undan kerakli ogohlantirishni olgan edi. Ammo qondoshlikni bilmagan hukmronlik Oqbo'yinni o'z og'asining qotiliga aylantirdi, chunki u

tufayli Oqbo'yin ilk bora miltiq o'qlariga nishon bo'lgan edi. Shu zaylda vaqt o'tar ekan taqdirning noodatiy o'yini Oqbo'yin hamda Olaparni insonlar chorvasiga zarar berayotgan bo'rilar galasiga birga kurashishga majbur qildi. Oqbo'yin otasi -cho'ponlarning zotdor iti Olapardan turli saboqlarni oldi. Biroq Oqbo'yinni ajal tinimsiz taqib qilar, miltiq o'qlariga bir nechta bor duchor bo'lgan edi. Asar yakunida esa eng adolatsiz qaror- Oqbo'yinga ega bo'la olmay hasad qilib yurgan Karim podachining uning juftidan foydalanish fikri edi va shu zaylda insonlar Oqbo'yinning qilgan xizmatlarini bilmay uning qotiliga aylanishdi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, yetakchi, to'da boshini shu zaylda juftidan foydalanib yengish sahnalari Ernest Seton Tomsonning „Lobo” hikoyasini bevosita yodga soladi. Bu eng adolatsiz va shavqatsiz qaror edi.

Ikkala asar qahramonlari Oqso'yloq va Oqbo'yinni birlashtirib turadigan hislat shu ediki, har ikkisi ham insonlarga bo'lgan mehrini, sadoqatini qanday ifodalashni bilmay qiynalishadi, sadoqati ortidan qanchalik aziyat chekishmasin ularga bari bekor edi. Aslo do'stlikka hiyonat qilinmadi, odamlarning hayotini saqlab qolish evaziga ajal sirtmog'iga tushgan taqdirlarida ham.

„U hech qachon unga talpinmas, iloji boricha uning ko'zidan naribroq bo'lishga harakat qilar, sadoqatini namoyish etishga oshiqmas, peshvoz chiqib ko'nglini ovlashdan saqlanar, aksincha bir chekkada kutib o'tirar, lekin har daqiqa unga intizor bo'lar edi. Uning mehr-muhabbati so'zsiz, sidqidildan sevishtirish namunasi edi go'yo. Oq so'yloqning ichidagisini, xo'jayinining har bitta harakatini kuzatayotgan ko'zlari fosh qilib qo'yardi. Uidon Skott umga tikilib, erkalay boshlaganida esa u butun vujudini qamrab olgan mehrini qay tarzda ifoda etishni bilolmay qiynalib ketardi”

„Faqat Rasulgina bolalarcha mehr bilan sevadi uni. Suykalishni jinidan yomon ko'rgani tufayli Oqbo'yin ba'zan o'z mehrini qay tarzda ifoda etishni bilmay qiynalardi”

Ikka jonzot ham insonlardan mehr ko'rish bilan birga ulardan cheksiz nafrat, zulm va shavqatsizlik ko'rdi. Oq so'yloqning azaliy dushmani sifatida Xushroy Smit qoldi. „Oqbo'yin” asarida esa afsuski, dushmani Karim podachi asar so'ngida uning qotiliga ham aylandi. Bundan maqsad, odamlar zulmining sababi esa o'z turdoshlari orasida bir bebaho mulkdek qaralgan bu ikki jonzotga ega bo'lish, chirkin hasad ya'ni ularning qobiliyatidan faqat o'zim foydalanishim kerak degan, sodda til bilan aytganda egoistik hirs edi. Aytish kerakki, bu ikki zolim zulmidan Oqso'yloq hamda Oqbo'yinni saqlab qoladigan mard, halol va sadoqatga munosib javob beradigan insonlarning borligi jamiyatning omadi deya olamiz.

XULOSA

Bu ikki asar tamomila insonlar va hayvonot dunyosini bog'lagan sadoqat rishtasiga madhiya deya olaman, ammo bazida itlar ko'rsatayotgan mehr, sadoqat inson orasida kamayib ketayotgani juda ayanchli hol. Agar bizni o'rab turgan bu borliq, ona tabiat o'z bag'ridagi jonzotlarga, nabodot dunyosiga qilingan shavqatsizlik tufayli sud qilganida insoniyatning yarmiga umrbod qamoq jazosi berilar edi. Oqso'yloq va Oqbo'yinni o'zaro uyg'unlashtirgan narsa ularning g'urur masalasi va aslo taslim bo'lmasklik qarori edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jek London „Oq so'yloq" asari (G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2016)
2. Normurod Norqobilov „Oq bo'yin “ (Cho'lpon nashriyoti -matbaa ijodiy uyi. Toshkent)